

**Mikrobiologiy, virusologiya va immunologiya kafedrasi assistenti
Sh.H.Murodillayev "Gelda diffuziyali pretsipitatsiya reaksiyasi"
mavzusidagi ochiq laboratoriya mashg'uloti ishlanmasiga**

TAQRIZ

Ochiq dars uchun tanlangan laboratoriya darsi mavzusi fanning dasturi va ishchi o'quv dasturiga to'liq mos keladi, darsning metodik optimalliliga o'qitishning texnikaviy vositalarni to'g'ri tanlanishiga alohida ahamiyat berilgan. Laboratoriya darsining ishlanmasida texnologik kartasi, dars savollari, maqsadi, vazifasi berilgan hamda adabiyotlar ro'yxati bilan ta'minlangan.

Dars ishlanmasida dastlab mashg'ulotning maqsadi va vazifalari, mashg'ulotning o'qitish pedagogik texnologiyasi berilgan bo'lib, unda pedagogik faoliyat va o'quv faoliyat natijalari ko'rsatilgan. Gelda diffuziyali pretsipitatsiya reaksiyasi usullardan to'g'ri foydalanilgan. Gelda diffuziyali pretsipitatsiya reaksiyasi to'g'risida umumiy tushunchalar berilgan.

Kafedra assistenti Sh.H.Murodillayev tomonidan tayyorlangan "Gelda diffuziyali pretsipitatsiya reaksiyasi" mavzusidagi laboratoriya mashg'ulotining pasporti va ishlanmasi hozirgi zamon ta'lim texnologiyalari talablariga to'liq javob beradi, o'quvchining ko'rsatma va didaktik manbalar bilan ishlashini oshiradi, o'zlashtirish jarayonini va mustaqil ishlashini ta'minlaydi deb hisoblayman va uni o'quv mashg'ulotida foydalanish uchun tavsiya qilaman.

**Samarqand viloyati hayvonlar
kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat
mahsulotlari xavfsizligi davlat
markazi direktori**



M.M.Allamurodova

**Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya kafedrasi assistenti
Sh.H.Murodillayevning “Gelda diffuziyali pretsipitatsiya
reaksiyasi” mavzusidagi ochiq laboratoriya mashg‘uloti
ishlanmasiga**

TAQRIZ

“Gelda diffuziyali pretsipitatsiya reaksiyasi” mavzusidagi laboratoriya mashg‘ulot darsi matni uslubiy tomondan to‘g‘ri taqdimot qilingan. Yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanilgan. Dastlab mashg‘ulot maqsadi va vazifalari keltirilgan. Mavzuni o‘qitish pedagogik texnologiyasi berilgan bo‘lib, unda pedagogik va o‘quv faoliyat natijalari ko‘rsatilgan. Gelda diffuziyali pretsipitatsiya reaksiyasi texnologik xaritasida esa o‘quv amaliy mashg‘ulotining vaqti ko‘rsatilgan.

Taqdimotda “Gelda diffuziyali pretsipitatsiya reaksiyasi”ning mohiyati haqida tushuncha, reaksiyasni qo‘yish texnikasi bo‘yicha batafsil ma’lumotlar yozilgan bo‘lib, talabalar dars davomida bu borada yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. Laboratoriya mashg‘ulot ishlanmasida DPR ning bir nechta rasmlari berilgan bo‘lib, ular aniq bosqichma-bosqich izohlangan. Bliss so‘rov, test savollari, nazorat savollari berilgan. Taqdimot foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati bilan yakunlangan.

Assistent Sh.H.Murodillayev tomonidan tayyorlangan “Gelda diffuziyali pretsipitatsiya reaksiyasi” mavzusidagi laboratoriya mashg‘uloti ishlanmasi hozirgi zamon ta’lim texnologiyalari talablariga javob beradi deb hisoblayman va uni o‘quv mashg‘ulotiga foydalanish uchun tavsiya qilaman.

**“Mikrobiologiya, virusologiya
va immunologiya” kafedrasi
v.b. dotsenti (PhD).**



A.H.Hatamov